



YILLIK HISOBOT 2023

MUNDARIJA

O'zbekcha

Boshqaruv Raisining murojaati.....	2
Xalq banki tarixi (Muhim sanalar).....	3
Umumiy ma'lumotlar.....	4
Xorijiy reytinglar.....	5
Bank aksiyadorlari	5
Bank tashkiliy tuzilmasi.....	6
Korporativ boshqaruv.....	7
Kuzatuv kengashi tarkibi va faoliyati.....	18
Kuzatuv kengashi faoliyati.....	19
Kuzatuv kengashi qo'mitalarning 2023-yildagi faoliyati.....	20
Bank Boshqaruvi tarkibi.....	21
Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar.....	22
Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlar.....	23
Ajratilgan kreditlar.....	24
Davlat dasturlari ijrosi.....	25
Ijtimoiy vazifalar ijrosi.....	26
Mijozlarga masofaviy xizmat ko'rsatish mahsulotlari	27
Aloqa markazi.....	28
2024-yildagi istiqbolli rejalar.....	29
Bank xodimlari malakasini oshirish va universallashtirish.....	30
Korporativ boshqaruv tizimini tashqi baholash.....	31

BOSHQARUV RAISINING MUROJAATI

Assalomu alaykum, hurmatli bank Aksiyadorlari!

Hurmatli Kengash a'zolari !

Xalq banki mamlakatimiz taraqqiyotida muhim o'ringa ega bo'lib, aholi va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy jihatdan ko'mak berib kelmoqda.

Shu jumladan, bank tomonidan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va tadbirkor ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida loyihalarni moliyalashtirish hamda ijtimoiy to'lovlarni amalga oshirish kabi vazifalar bajarib kelinmoqda.

Hisobot yilda zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatishda yangi formatda ishlash rejimiga o'tish uchun keng qamrovli transformatsiya jarayonlari amalga oshirildi.

Bank filiallari ixcham bank xizmatlari markazlariga aylantirildi hamda "bek ofis" funksiyalari markazlashtirilib, biznes jarayonlari va sarflanadigan xarajatlar optimallashtirildi.

Aholiga xizmat ko'rsatishda yanada qulayliklar yaratish maqsadida bankning yangi va zamonaviy "**xazna**" mobil ilovasi ishga tushirildi.

Mazkur mobil ilova orqali 600 tadan ziyod xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning to'lovlarini qabul qilish va aholiga ko'rsatilayotgan 40 dan ortiq davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, Xalq banki faoliyatini rivojlantirish bo'yicha Osiyo taraqqiyot banki vakillari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi hamda ularning malakali konsultantlari bilan birga "**Xalq bankini 2023-2025 yillarda rivojlantirish Strategiyasi**" va uni amalga oshirish yuzasidan "**Yo'l xaritasi**" ishlab chiqildi hamda aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlandi.

Bugungi kunda, OTB bilan Strategiyani joriy qilish bo'yicha bitim imzolandi va 10 ta xalqaro ekspertlar jalb etildi hamda 17 ta strategik yo'nalishda hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Ishonchimiz komilki, rivojlanish strategiyasida belgilangan maqsadlar va ustuvor vazifalarni amalga oshirish natijasida Xalq banki faoliyatini yangi sifat darajasiga ko'tarish va mamlakatning moliya bozorida yuqori o'rirlarni egallash ta'minlanadi.

Mazkur imkoniyatdan foydalanib, bankning barcha xodimlariga mehnatsevarligi va strategik maqsadlarimizga erishish uchun qat'iyat bilan fidokorona mehnat qilayotganliklari uchun alohida minnatdorchilik bildiraman.

Hurmat bilan,
Boshqaruvi Raisi
Sh. Atabayev

XALQ BANKI TARIXI (MUHIM SANALAR)

2017-yil 13-mart PQ-2826 ➤

Pensiylar va nafaqalarni to'lash Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilandi

(O'z.R.Pr.ning Qarori PQ-2826, 13.03.2017 y.)

2004-yil 2-dekabr O'RQ-702-II ➤

Fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilandi

(O'z.R. Qonuni №702-II, 2.12.2004 y.)

1993-yil 27-avgust VM-430 ➤

O'zbekiston Respublikasi mehnat jamg'armalari va aholiga kredit berish davlat-tijorat banki ("O'zjamg'armabank") ustavi tasdiqlandi

(VM qarori №430, 27.08.1993 y.)

2015-yil 24-aprel PF-4720

Bank nomi "Davlat tijorat Xalq banki"dan "Aksiyadorlik tijorat Xalq banki"ga o'zgartirildi

(O'z.R.Pr. Farmoni PF-4720, 24.04.2015 y.)

1995-yil 10-oktyabr VM-386

Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan "O'zjamg'armabank" O'zbekiston Respublikasi Xalq bankiga aylantirildi

1896-yil ➤

Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Marg'ilon va boshqa yirik shaharlarimizda bank filiallari ochilgan

1924-yil 20-mart

Hukumat qaroriga asosan "Toshkent shahar mehnat jamg'arma kassalari Bosh boshqarmasi" ustavi tasdiqlandi

1875-yil 10-may

Davlat bankining Toshkentdagi birinchi filiali (birlamchi jamg'arma kassalari) tashkil etilgan

UMUMIY MA'LUMOTLAR



263 ta

Bank xizmatlari
markazi



245 ta

Xalqaro pul
o'tkazmalari
tarmog'i



10 ta

Bankdan tashqaridagi
kassalar



566 ta

24/7-Elektron
ofislar



226 ta

Valyuta ayriboshlash
shoxobchalari



697 ta

Sayyor kassalar

Mijozlar soni

9,1 mln

Jismoniy shaxslar



272 ming

Yuridik shaxslar



3 111 ta

Bankomatlar soni

52 ta

ADMlar soni

46 600 ta

Terminallar soni

7,6 mln ta

Bank kartalari soni

Bank guruhi

Xalq banki 2011-yilda ro'yxatdan o'tgan "Xalq sug'urta" aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining yagona aksiyadori hisoblanadi.

Jamiatni avtonom boshqarish modeli, uning likvidligi va kapitali Bank guruhiga kiruvchi kompaniyalar o'rtaida ta'sir o'tkazish imkoniyatini cheklaydi va tizimli riskni kamaytiradi.

Guruhni boshqarish modeli nazorat qiladi va nazoratni kuchaytiradi:

- sug'urta kompaniyasining Kuzatuv kengashida Xalq banki vakillarining ishtirok etishi;
- sug'urta kompaniyasi Bosh direktorining Xalq banki Boshqaruvi raisi oldidagi javobgarligi;
- bank guruhiga kiruvchi kompaniyalar o'rtaida nazorat, boshqaruv va biznes funksiyalari darajasidagi o'zaro munosabatlar.

XALQARO REYTINGLAR

Fitch Ratings

Fitch Ratings

xalqaro reyting agentligi

“BB-/B”

2023-yil

S&P Global

Standard & Poors

Xalqaro reyting agentligi

“B/B”

2023-yil

Litsenziyalar


O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank amaliyotlarini amalga oshirish huquqini beruvchi 2021-yil 25-dekabrdagi 25-sonli litsenziyasi.

KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY TUZILMASI

BANK AKSIYADORLARI TARKIBI

7,7 trln so'm

Jami ustav kapitali




● Iqtisodiyot va moliya vazirligi

● Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

01.01.2024 y.

BANK TASHKILIY TUZILMASI



KORPORATIV BOSHQARUV

Xalq bankining korporativ boshqaruv tizimi – bu aksiyadorlar, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasidagi munosabatlар tizimi, shuningdek, bank faoliyatini boshqaradigan va ularga muvofiq monitoring olib boriladigan qoidalar va xulq-atvor normalari majmuidir.

Korporativ boshqaruv samaradorligi bankning maksimal foyda olishga yo'naltirilgan tijorat faoliyati o'rtasida optimal muvozanatni o'rnatish hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va me'yoriy hujjatlariga riosa etish orqali ta'minlanadi.

Xalq bankining korporativ boshqaruv maqsadlari:

- Bank aksiyadorlik qiymatini va uning investitsion jozibadorligini oshirish;
- Eng ilg'or xalqaro korporativ boshqaruv amaliyotlari asosida Bankning korporativ boshqaruvi asoslarini shakllantirish;
- Korporativ risk madaniyatini shakllantirish.

Korporativ boshqaruv bo'yicha 2023-yil uchun belgilangan ustuvor vazifalar:

- Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi bank faoliyatini boshqarishdagi vakolat va majburiyatlarini shaffof taqsimlash;
- Nazorat tizimiga, komplayens va risklarni boshqarishga, shuningdek, riskka asoslangan ichki audit transformatsiyasiga qaratilgan uch himoya tizimni mustahkamlash.

Xalq bankining korporativ boshqaruv tamoyillari:

- Bankning korporativ boshqaruv tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:
- Intizom – Bank Boshqaruvi belgilagan tartibda va to'g'ri harakat qilishi;
- Shaffoflik – zarur ma'lumotlar ochiq, to'g'ri va o'z vaqtida taqdim etilishi;
- Hisobdorlik – Bank Boshqaruvi Kuzatuv kengashi va aksiyadorlar oldida to'liq hisobdor bo'lishi;
- Mustaqillik – barcha manfaatdor tomonlar manfaatlar to'qnashuvini minimallashtirishi yoki oldini olishi;
- Adolatlilik – barcha manfaatdor tomonlarga nisbatan muvozanatli munosabatda bo'lish;
- Mas'uliyat – tartibga solish va notog'ri boshqaruv uchun jarimaga tortish choralarini qo'llash;
- Atrof-muhit, Ijtimoiy va Boshqaruv (AIK) javobgarlik - ijtimoiy masalalar, etik standartlar, ekspluatatsiya qilmaslik, kamsitmaslik, atrof-muhit va inson huquqlariga nisbatan javobgarlik.

KORPORATIV BOSHQARUV

Korporativ boshqaruv tizimini baholash:

Xalq bankining korporativ boshqaruv tizimi 2022-yil yakunlari bo'yicha 654 ballik ko'rsatgich bilan yuqori baholangan, (maksimal 1 200 balldan). Bank Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarining muhim hisoblangan talablariga amal qiladi.

Shu bilan birga, Bank korporativ boshqaruv sifati va barqaror rivojlanishni boshqarish bilan bog'liq manfaatdor tomonlar risklarini minimallashtirishga harakat qilmoqda. Aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan Xalq bankining korporativ boshqaruv amaliyoti ijobiy baholandi.

2023-yilda Kuzatuv kengashi 7 kishidan iborat bo'lib, ularning to'rt nafari mustaqil a'zo, Kuzatuv kengashi raisi esa davlat vakillaridan biri hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi raisining o'rinnbosari Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolaridan tayinlangan. 2023-yil davomida qo'mitalarning tarkibi o'zgarmagan Risklarni boshqarish qo'mitasi va Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi tarkibi to'liq Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolaridan tuzilgan, Auditorlik va Korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasi raislari Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari hisoblanadi. Shu bilan birga, Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolarining Qo'mitalardagi a'zoligi ko'pchikikni tashkiletadi.

Tashqi auditorlik tashkiloti ochiq tanlov natijalari asosida tanlanadi. Markaziy bank talablariga muvofiq, "Xalq banki tizimida Molイヤiy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan konsolidatsiyalashgan hisobotlarini majburiy auditdan o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlash va tasdiqlash to'g'risida"gi Tartib ishlab chiqildi.

Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi a'zolari va aksiyadorlarining "Vakolatlar matritsasi" ishlab chiqildi.

Kuzatuv kengashi a'zolarining malakasini oshirish va qo'shimcha axborotlar bilan tanishish maqsadida Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruv" (ESG) masalalari bo'yicha trening tashkil etildi.

Mustaqillikni ta'minlash va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Bankda 4 ta tarkibiy bo'linma tashkil etilgan bo'lib, funksional jihatdan Kuzatuv kengashiga hisobdor hisoblanadi:

- Ichki audit departamenti;
- Risk menejment departamenti;
- Ichki nazorat va komplayens departamenti;
- Korporativ maslatchi va Korporativ boshqaruv xizmati.

Kuzatuv kengashi ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlari, shuningdek komplayens va ichki audit bilan bog'liq jarayonlar ustidan nazoratni Risk, Audit hamda korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitalari orqali amalga oshiradi. Qo'mitalarning faoliyatini tartibga soluvchi, maqsad va vazifalari belgilangan, raislari hamda a'zolarining mas'uliyati va javobgarligi, shuningdek, qo'mita majlislarini o'tkazish qoidalarini nazarda tutuvchi Nizomlari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

KORPORATIV BOSHQARUV

Bankda alohida Korporativ maslahatchi lavozimi tashkil etildi. Korporativ maslahatchiga yuklangan funksiya va vakolatlar Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining korporativ boshqaruv tavsiyalariga to'liq mos keladi. 2023-yilda Xalq banki Korporativ maslahatchisi O'zbekistonda birinchi bo'lib "Hawkamah" Institut (Dubay, BAA)ning rasmiy sertifikatiga ega bo'ldi. Ushbu Institutning sertifikati uning egasiga Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida Kuzatuv kengashi kotibi sifatida ishlash huquqini beradi.

Kuzatuv kengashi har yili o'z-o'zini baholash yoki tashqi baholovchi konsalting kompaniyalarni jalb qilish asosida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini baholaydi.

Korporativ boshqaruv tizimi:

Bank 2016-yildan buyon Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga riosa qilib kelmoqda. Bank aksiyalari "Toshkent" Respublika Fond birjasi listingiga kiritilgan.

2022-yildan boshlab Xalq banki korporativ munosabatlarning o'rnatilgan an'analarini, shuningdek, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tavsiyalariga muvofiq ilg'or korporativ boshqaruv amaliyotini joriy etish bo'yicha asosiy yo'riqnomalarni aks ettiruvchi Korporativ boshqaruv siyosati tasdiqlandi.

Xalq bankining aksiyalari to'liq holda davlatga tegishli bo'lган strategik aksiyadorlik jamiyati bo'lганligi sababli, korporativ boshqaruv bo'yicha xalqaro amaliyotning ayrim jihatlariga mos kelmasligi mumkin. Xususan, Kuzatuv kengashi raisi davlat xizmatchisi bo'lib, boshqaruv raisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tayinlanadi.

Umuman olganda, Xalq banki muvozanatli va shaffof korporativ boshqaruv tizimini joriy etishga intiladi.

Kuzatuv kengashi faoliyatini takomillashtirish uchun e'tibor qaratish lozim bo'lgan yo'nalishlar:

- Kuzatuv kengashining yangi a'zolari uchun moslashuv dasturi;
- Kuzatuv kengashi a'zolarining malakasini oshirish dasturlari;
- Kuzatuv kengashi faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ish samaradorligini oshirish hamda Kuzatuv kengashi a'zolarining bir-biri bilan va Bank bilan o'zaro hamkorligini yanada yaxshilash uchun foydalaniladigan axborot texnologiyalari.

Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalar:

Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi muhim masalalar dastlab Kuzatuv kengashi tarkibidagi qo'mitalarda ko'rib chiqiladi va ushbu masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish maqsadida tavsiyalar tayyorlash uchun beshta qo'mita tashkil etildi.

Qo'mitalar o'z faoliyatida Kuzatuv kengashiga hisobdor hisoblanadi. Qo'mitalar raislari Kuzatuv kengashiga qo'mitalar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, ko'rib chiqilgan masalalar mazmuni va berilgan tavsiyalar to'g'risida hisobotlar taqdim etadi. Odatda Qo'mita majlislari videokonferens-aloqa orqali yoki to'g'ridan-to'g'ri quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- Risklarni boshqarish qo'mitasi – har oyda;
- Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi – har chorakda;
- Strategiya va investitsiya qo'mitasi – har chorakda;

KORPORATIV BOSHQARUV

- Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasi – har chorakda;
- Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi – har chorakda.

Muayyan qarorlar qo'mitalar tomonidan sirtdan ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladigan majlislarda qabul qilinishi mumkin. Qo'mitalarning ish rejali Kuzatuv kengashining Ish rejasi, qo'mita a'zolari, shuningdek Bankning tegishli bo'linmalari tashabbusi bilan kiritilgan takliflar asosida tegishli har bir qo'mita raislari tomonidan tuziladi.

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi:

Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish bilan bog'liq masalalarni oldindan ko'rib chiqish maqsadida Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi tuzildi.

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining asosiy vazifalari ichki nazorat, risklarni boshqarish va korporativ boshqaruv tizimlari samaradorligini oshirish, Kuzatuv kengashining ushbu tizimlarning ishlashi masalalarida boshqaruv va nazorat funksiyalarini amalga oshirilishini ta'minlash, buxgalteriya (moliyaviy) hisobotining ishonchligi, shuningdek tashqi auditor va Ichki audit departamenti faoliyatini nazorat qilishdan iborat.

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi auditorlik tashkilotini tanlash doirasida auditorlik tashkilotining mustaqilligini va manfaatlar to'qnashushi mavjud emasligini baholaydi, auditorlik tashkilotini va auditorlik tashkilotiga nomzodlarni tanlash mezonlarini baholaydi, Kuzatuv kengashiga aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlash uchun auditorlik tashkilotini tanlash va auditorlik tashkiloti bilan tuziladigan shartnoma shartlari to'g'risida tavsiyalar tayyorlaydi. Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining vazifalariga, shuningdek, Bankning yillik hisobotini ko'rib chiqish va hisobotni dastlabki tarzda tasdiqlash maqsadida Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash kiradi.

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi tarkibi:

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining uch nafar a'zosidan ikki nafari mustaqil a'zo (shu jumladan, qo'mita raisi) hisoblanadi, bir nafari ijrochi bo'limgan a'zo hisoblanadi.

Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-yildagi faoliyati:

Qo'mitaning yil davomida 16 ta majlisi o'tkazildi, shundan: 2 ta majlis to'g'ridan-to'g'ri, 12 ta majlis videokonferens-aloqa vositasi orqali, 2 ta majlis sirtdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi.

2023-yilda Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining vakolati doirasiga kiruvchi quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

- Xalq banki Ichki audit departamenti tomonidan o'tkazilgan audit natijalarini;
- Ichki audit departamenti faoliyati samaradorligini baholash va Ichki audit departamenti mustaqilligini baholash to'g'risida hisobotlari;
- Xalq banki Ichki audit departamenti rahbari faoliyatini baholash natijalari;

KORPORATIV BOSHQARUV

- Xalq bankining 2022-yil uchun yillik hisobotini dastlabki tasdiqlash;
- Xalq banki foydasining taqsimlanmasligi;
- Tashqi auditorlik tashkilotini tayinlash;
- 2022-yilga mo'ljallangan tashqi auditning asosiy masalalari;
- Ichki audit departamentining 2023-yilga mo'ljallangan Ish rejası;
- Xalq banki Kuzatuv kengashining Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining 2023-2024 korporativ yil uchun ishlab chiqilgan Ish rejası;
- Xalq bankining MHXS asosida ishlab chiqilgan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlari;
- Xalq bankining 2022-yil uchun yillik buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti bo'yicha auditorlik xulosasi.

Risklarni boshqarish qo'mitasi:

Risklarni boshqarish qo'mitasi risklarni boshqarish masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash va taqdim etish uchun tashkil etilgan.

Risklarni boshqarish qo'mitasining asosiy vazifalariga Bankning risklarni boshqarish, Risk appetiti bilan bog'liq masalalarni oldindan ko'rib chiqish, shuningdek, risklarni boshqarish strategiyasining amalga oshirilishini monitoring qilish va Risk appetitiga riox qilish kiradi.

Risklarni boshqarish qo'mitasining funksiyalariga bankning risklari va kapitalini boshqarish bilan bog'liq masalalarni, xavflarning asosiy turlari, shu jumladan axborot texnologiyalari bilan bog'liq risklar bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va dastlabki tarzda ko'rib chiqish, hisobotlarni ko'rib chiqish, shuningdek, kapital yetarliligini baholash bo'yicha ichki tartib-qoidalar doirasida, muayyan operatsiyalarni boshqarish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqish kiradi.

Risklarni boshqarish qo'mitasi tarkibi:

Risklarni boshqarish qo'mitasining barcha uch nafar a'zosi Kuzatuv kengashining (jumladan, qo'mita raisi ham) mustaqil a'zolari hisoblanadi.

Risklarni boshqarish qo'mitasining 2023-yildagi faoliyati:

Qo'mitaning yil davomida 14 ta majlis o'tkazildi, shundan: 2 ta majlis to'g'ridan-to'g'ri, 12 ta majlis video-konferens-aloqa vositasi orqali, 1 ta majlis sirdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi.

2023-yilda Risklarni boshqarish qo'mitasining vakolati doirasiga kiruvchi quydagi masalalar ko'rib chiqildi:

- Xalq bankining Risk holati to'g'risidagi hisobotlari;
- Xalq bankining tavakkalchilik darajasi bo'yicha joriy vaziyat to'g'risidagi hisobotlar;
- Xalq bankining Risk appetiti bo'yicha hisobotlar;
- Xalq bankining risklarni va kapitalni boshqarish strategiyasi bo'yicha hisobotlar;
- Stress-test ssenariylarini dastlabki tarzda ma'qullash va uning joriy etish natijalarini ko'rib chiqish;
- Xalq banki Risk menejment departamentining 2023-yilga mo'ljallangan Ish rejasini tasdiqlash;

KORPORATIV BOSHQARUV

- Xalq banki Kuzatuv kengashi qoshidagi Risklarni boshqarish qo'mitasining 2023-2024 korporativ yilga mo'ljallangan Ish rejasini ko'rib chiqish;
- boshqa masalalar.

Strategiya va investitsiya qo'mitasi

Strategiya va investitsiyalar qo'mitasining asosiy vazifalariga Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi Bankning barqaror rivojlanish sohasidagi biznes-strategiyasi va siyosati masalalari bo'yicha tavsiyalar (xulosalar) tayyorlash va Kuzatuv kengashiga taqdim etish kiradi.

Strategiya va investitsiya qo'mitasining funksiyalariga Bankning barqaror rivojlanish sohasidagi strategik maqsadlari va yo'nalishlarini belgilash doirasida Kuzatuv kengashiga tavsiyalar ishlab chiqish, Bankning Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish monitoringi va bank Boshqaruvi bilan birgalikda Rivojlanish strategiyasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha va boshqa masalalar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish kiradi.

Strategiya va investitsiya qo'mitasi tarkibi:

Strategiya va investitsiya qo'mitasining barcha uch nafar a'zosi Kuzatuv kengashining (jumladan, qo'mita raisi ham) mustaqil a'zolari hisoblanadi.

Strategiya va investitsiya qo'mitasining 2023-yildagi faoliyati:

Qo'mitaning yil davomida 6 ta majlisi o'tkazildi, shundan: 2 ta majlis to'g'ridan-to'g'ri, 4 ta majlis video-konferens-aloqa vositali orqali o'tkazildi.

2023-yilda Strategiya va investitsiya qo'mitasining vakolati doirasiga kiruvchi quydagi masalalar ko'rib chiqildi:

- 2023-yilga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi va Biznes-reja ko'rsatkichlari ijrosi;
- yillik biznes-reja ijrosi to'g'risidagi natijalar;
 - Xalq banki korporativ va investitsion biznesni rivojlantirish loyihalari ijrosi to'g'risidagi natijalar;
 - Xalq bankida bank biznesi uchun axborot texnologiyalarining holati va rivojlanish istiqbollari;
 - Xalq banki Kuzatuv kengashi qoshidagi Strategiya va investitsiya qo'mitasining 2023-2024 korporativ yilga mo'ljallangan Ish rejasini ko'rib chiqish;
- boshqa masalalar.

Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasi:

Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasi korporativ boshqaruvning samarali tizimini, korporativ madaniyatni, uzviylikni rejalashtirish va Kuzatuv kengashining professional tarkibini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan.

Qo'mita funksiyalariga Kuzatuv kengashi a'zolari har birining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashish va malakasini oshirish dasturlarini shakllantirish, shuningdek, ushbu dasturlarning amaliy ijrosini nazorat qilish kiradi;

Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasi tarkibi:

Korporativ boshqaruv, nomzodlar va etika qo'mitasining barcha uch nafar a'zosi Kuzatuv kengashining (jumladan, qo'mita raisi ham) mustaqil a'zolari hisoblanadi.

KORPORATIV BOSHQARUV

Korporativ boshqaruv, nomzodlar va etika qo'mitasining 2023-yildagi faoliyati:

Qo'mitaning yil davomida 6 ta majlisi o'tkazildi, shundan: 2 ta majlis to'g'ridan-to'g'ri, 2 ta majlis video-konferens-aloqa vositasi orqali va 2 ta majlis sirtdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi.

2023-yilda Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasining vakolati doirasiga kiruvchi quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

- 2022-yil yakunlari bo'yicha Xalq banki Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini mustaqil baholash natijalari;
- 2022-yil yakunlari bo'yicha Xalq banki Kuzatuv kengashi faoliyati samaradorligini ichki baholash natijalari;
- 2022-yil yakunlari yuzasidan Xalq banki aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashiga saylash uchun ko'rsatilgan nomzodlar bo'yicha kelib tushgan takliflar;
- Kuzatuv kengashi va uning qoshidagi qo'mitalar ish tartiblarini, shu jumladan 2022-yil yakunlari bo'yicha Kuzatuv kengashi va uning qoshidagi qo'mitalari faoliyati samaradorligini ichki baholash natijalari bo'yicha takomillashtirish rejasini tasdiqlash masalasi;
- Xalq banki Kuzatuv kengashi qoshidagi Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasining Ish rejasini tasdiqlash masalasi;
- boshqa masalalar.

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi:

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi samarali mehnatga haq to'lash tizimini shakllantirish, uzviylikni rejallashtirish va Bank Boshqaruvi va boshqa muhim axamiyatga ega xodimlarining professional tarkibini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan.

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasining asosiy vazifalariga Boshqaruvning kadrlar tuzilmasini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, Boshqaruv a'zolari va boshqa asosiy rahbar xodimlarning mehnatiga haq to'lashning samarali tizimini shakllantirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Qo'mita vazifalariga Boshqaruv a'zolarining har birining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashish va malakasini oshirish dasturlarini shakllantirish, shuningdek, ushbu dasturlarning amaliy bajarilishini nazorat qilish kiradi.

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi Bank Boshqaruvi a'zolari faoliyatini muntazam ravishda baholab boradi.

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi tarkibi:

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasining uch nafaridan ikki nafari mustaqil a'zo, Qo'mita Raisi esa Kuzatuv kengashining ijro etuvchi bo'lmagan a'zosi hisoblanadi.

Xodimlar va mukofotlash qo'mitasining 2023-yildagi faoliyati:

Qo'mitaning yil davomida 9 ta majlisi o'tkazildi, shundan: 2 ta majlis to'g'ridan-to'g'ri, 7 ta majlis videokonferens-aloqa vositasi orqali o'tkazildi.

KORPORATIV BOSHQARUV

2023-yilda Xodimlar va mukofotlash qo'mitasining vakolati doirasiga kiruvchi quyidagi masalalar ko'rib chiqildi:

- 2022-yil yakunlari bo'yicha Xalq banki Boshqaruvi faoliyati samaradorligini baholash natijalari;
- Bankning Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlarining mehnatiga haq to'lash;
- Xalq banki Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolarining mehnatiga haq to'lash to'g'risidagi nizom va qoidalarini, shuningdek, 2023-yil uchun Samaradorlikni baholash ko'rsatkichi (KPI)larini tasdiqlash masalasi;
- Xalq banki Kuzatuv kengashining Xodimlar va mukofotlash qo'mitasining 2023-2024 korporativ yil uchun mo'ljallangan Ish rejasini tasdiqlash masalasi;

Bank Boshqaruvi

Bank Boshqaruvi – Xalq bankining joriy faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradigan boshqaruv raisi boshchiligidagi kollegial ijroiya organi hisoblanadi.

Boshqaruv har chorakda kamida bir marta Kuzatuv kengashiga Bankni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish holati to'g'risidagi, Kuzatuv kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishi to'g'risidagi, bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va bank tomonidan qabul qilingan risklar darajasi to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etadi.

Boshqaruv raisi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Boshqaruv a'zolari Kuzatuv kengashi qarori bilan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bank Boshqaruvi Raisi Boshqaruvga va uning faoliyatiga rahbarlik qiladi, Bank faoliyatiga operativ rahbarlikni amalga oshiradi, Kuzatuv kengashi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi, Boshqaruv ishini tashkil qiladi, a'zolar o'rasisida vazifalarni taqsimlaydi, Boshqaruv majlislarida raislik qiladi. Boshqaruv raisi Bankning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarini tayyorlash tizimi va ishonchlilagini tashkil etish, ma'lumotlarning o'z vaqtida oshkor etilishi va Bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni aksiyadorlar, mijozlar va boshqa manfaatdor shaxslarga taqdim etish uchun javobgar hisoblanadi.

Korporativ maslahatchi

Bank boshqaruv organlari va mansabdor shaxslari tomonidan korporativ boshqaruv tartib-qoidalariiga, amaldagi qonun hujjatlari, Bank Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi va Bankning ichki hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash, aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishni kafolatlash, Bankda Korporativ maslahatchi (kotib) lavozimita'minlash belgilangan.

Korporativ maslahatchining faoliyati Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Korporativ maslahatchi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

Korporativ maslahatchi:

- Kuzatuv kengashi qarori bilan lavozimga tayinlanadi;
- Kuzatuv kengashiga o'z faoliyati bo'yicha funksional hisobdor va Kuzatuv kengashi tomonidan nazorat qilinadi hamda ma'muriy jihatdan Bank Boshqaruvি Raisiga bo'ysunadi;

KORPORATIV BOSHQARUV

- Kuzatuv kengashiga Bankda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yuzasidan yillik hisobotlarni taqdim etadi;

- Bankning tarkibiy bo'linmasi bo'lgan – Korporativ boshqaruv xizmati rahbari hisoblanadi;

Asosiy maqsadlari:

- aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha korporativ tartib-qoidalarga riosa etilishini ta'minlash;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishni tashkil qilishda ishtirok etish;

- Bank Kuzatuv kengashi faoliyatini ta'minlash, jumladan:

- Bankda korporativ boshqaruv tizimi va amaliyotini takomillashtirish;

- Kuzatuv kengashi a'zolari faoliyati uchun zamonaviy texnologik va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish;

- Kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida hamda aksiyadorlar va Bank rahbariyati bilan ham samarali aloqalarni amalga oshirish;

- Kuzatuv kengashi majlislari kun tartibidagi masalalar bo'yicha materiallarni tayyorlash va qayta ishlash tartibini ishlab chiqish hamda o'zgartirishlar kiritish;

- korporativ huquq va boshqaruv masalalari, bank ustav hujjatlarining mazmuni, shuningdek, Kuzatuv kengashi majlisida qabul qilinadigan qarorlar shakli va tartibi bo'yicha tushuntirishlar tayyorlash;

- muhim faktlarni oshkor qilish siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

- korporativ hujjatlarning saqlanishini ta'minlash;

- Korporativ maslahatchi vakolatiga kiruvchi qonun hujjatlari, Ustav va ichki hujjatlar talablariga riosa etilishini nazorat qilish.

Nazorat va audit tizimi

Ichki audit departamenti

Ichki audit departamenti Xalq banki boshqaruv organlariga o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda, uning faoliyati samaradorligi va natijaviyligini ta'minlashda ko'maklashish uchun mo'ljallangan.

Departament o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank talablariga to'liq riosa qilgan holda, faoliyatning uzluksizligi, mustaqillik, xolislik va kasbiy ko'nikmalari tamoyillariga riosa qilgan holda amalga oshiradi. Ichki audit departamenti bank Kuzatuv kengashiga va ma'muriy jihatdan Boshqaruv raisiga bo'ysunadi. Departament rahbari Bank Kuzatuv kengashi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

Bank – Ichki audit departamentining mustaqilligi va xolisligini ta'minlash bo'yicha zarur choralarini ko'radi hamda uning funksiyalarini to'siqlarsiz va samarali amalga oshirishi uchun sharoit yaratadi. Departament Bank faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha tekshiruvlar o'tkazadi va aniqlangan risklar darajasini pasaytirish bo'yicha tekshirishlar natijalari yuzasidan Bank bo'linmalari tomonidan ko'rيلayotgan chora-tadbirlar samaradorligini nazorat qiladi.

KORPORATIV BOSHQARUV

Bank Kuzatuv kengashiga taqdim etiladigan Ichki audit departametining hisobotlari doirasida Bosh audotor Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan Ish rejaning bajarilishi, ichki nazorat va risklarni boshqarish tizimlari, korporativ boshqaruv faoliyatida aniqlangan kamchiliklar to'g'risida shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralar to'g'risida axborot beradi.

2023-yilda "KPMG" xalqaro konsalting kompaniyasi tomonidan Ichki audit departamenti samaradorligini tashqi baholashdan o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra ichki auditga riskga asoslangan yondashuvni takomillashtirish va Xalq bankida uchinchi ximoya chizig'ini mustahkamlash bo'yicha Yo'l xaritasi ishlab chiqildi.

Ichki nazorat va komplayens departamenti

Ichki nazorat va komplayens departamenti Bankning ichki nazorat va komplayens departamenti xodimlaridan iborat bo'lgan, alohida tarkibiy bo'linmas hisoblanib, xizmat vazifalariga Bankning Ichki nazorat va komplayens departamenti to'g'risidagi Nizomda belgilangan funksiyalarni bajarish kiradi.

Ichki nazorat va komplayens departamenti Bank Kuzatuv kengashiga hisobodor bo'lib, mustaqillik, xolislik va kasbiy malaka, qonunga xi洛f faoliyatga aralashmaslik, davlat organlariga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga axborotlarni qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida taqdim etish tamoyillariga amal qiladi.

Ichki nazorat va komplayens departamentining asosiy vazifalari

- regulyator risklarini aniqlash va monitoring qilish;
- tartibga solish xavfi bilan bog'liq hodisalarни hisobga olish, ularning yuzaga kelish ehtimolini aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni miqdoriy baholash;
- Bankning tarkibiy bo'linmalari va boshqaruv organlari rahbarlariga regulyator risklarini boshqarish bo'yicha tavsiyalar berish;
- Bankda regulyator risklarining darajasini pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishda ishtirok etish va muvofiqlashtirish;
- regulyator risklari bilan bog'liq masalalar bo'yicha bank xodimlarini xabardor qilish;
- Bank va uning xodimlari faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, uni minimallashtirishga qaratilgan ichki hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- korporativ etika qoidalariga, kasbiy etika standartlariga riosa qilish, tijoriy poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlarni ishlab chiqish va tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etish;
- bankning nazorat organlari, o'z-o'zini tartibga soluvchi tashkilotlar, birlashmalar va moliya bozori ishtirokchilari bilan o'zaro hamkorlikda ishlarni tashkil etish.

Risk menejment departamenti

Risklarni boshqarish maqsadida Bankda Risk menejment departamenti tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi risklarni boshqarish hisoblanadi.

Risk menejment departamenti

- Kuzatuv kengashiga o'z faoliyati bo'yicha funksional hisobdor va ma'muriy jihatdan bank Boshqaruvi raisi o'rinnbosariga hisobdor hisoblanadi;
- Kuzatuv kengashiga - har chorakda kamida bir marta, ijroiya organiga - oyda kamida bir marta hisobotlarni taqdim etadi;

KORPORATIV BOSHQARUV

Risk menejment departamentining asosiy funksiyalari

- risklarning muhimligini aniqlash va baholash, risk darajasini baholash, umumlashtirish va prognozlash;
- limitlar va risk cheklovlarini ishlab chiqish;
- qabul qilingan risklar hajmini monitoring va nazorat qilish, belgilangan ichki va tashqi cheklovlar doirasida qabul qilingan risklarni ushlab turish uchun risk darajasini pasaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- kapitalga bo'lgan talablar, shu jumladan, stressli vaziyatlarda belgilanadigan muhim risklarni qoplash uchun kapitalning yetarliliginini baholash;
- stressli vaziyatlarda kapitalning yetarlilagini ta'minlash va zararlarning oldini olish kamaytirish bo'yicha profilaktika va tuzatish tadbirlarini ishlab chiqish;
- muhim risklar va kapitalning yetarliligi to'g'risida ma'lumot berish;
- Bosh bank darajasida risklarning umumiylushunchalarini shakillantirish;
- ilg'or xalqaro amaliyotlarni hisobga olgan holda tavakkalchilik madaniyati va risklarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish.

Tashqi auditor

Xalqaro standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tekshirish va tasdiqlash maqsadida Xalq banki tomonidan mustaqil auditorlik tashkiloti jalb qilinadi. Bankda auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha auditorlik tashkilotini tanlash uchun Xalq banki tomonidan ochiq tanlov o'tkaziladi.

Auditorlik tashkilotini tanlash bo'yicha ochiq tanlov o'tkazish to'g'risidagi bildirishnoma va tanlov hujjalari Xalq bankining tovarlarni va xizmatlarni, ish-xizmatlarini bajarilishi bo'yicha xaridlar qonunchilik talablari asosida tanlov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Ochiq tanlov natijalariga ko'ra tanlab olingan auditorlik tashkiloti Boshqaruv, Kuzatuv kengashining Audit va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanadi va Bank aksiyadorlarining umumiyligini yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

KUZATUV KENGASHI TARKIBI VA FAOLIYATI



**Ishmetov Timur
Amindjanovich**

Kengash Raisi

Prezidentning iqtisodiy
rivojlanish masalalari
bo'yicha maslahatchisining
birinchi o'rinnbosari



Rodjer Tomson
(AQSH)

**Kengash Raisi o'rinnbosari-
mustaqil a'zo**

"Akinn Group"
boshqaruvchi direktor



Taron Ganjalyan
(Niderlandiya)

Mustaqil a'zo

Niderlandiyadagi «LINKS
Analitics» kompaniyasi
Boshqaruvchi direktori



**Boboyev Adiz
Muzaferovich**

O'zbekiston Respublikasi
Hisob palatasi Raisi



**Zaynudinov Sirojiddin
Sayfutdinovich**
(Rossiya)

Mustaqil a'zo

"Gruppa ILIM" AJ Ichki audit
bo'yicha Vitse Prezidenti



Kayser Nasim
(Kanada)

Mustaqil a'zo

Xalqaro rivojlantirish va
inevstitsion bank bo'yicha
mutaxassis



**Ibragimov Djamol
Kamilovich**

O'zbekiston Respublikasi
Tiklanish va taraqqiyot
jamg'armasi boshqarma
boshlig'i o'rinnbosari

Kuzatuv kengashi a'zolarining soni 7 nafardan iborat bo'lib,
ular ijro organiga kirmagan holda har yili saylanadi. Amaldagi
Kuzatuv kengashining asosiy qismi (57%) mustaqil a'zolardan
iborat bo'lib, ular AQSh, Niderlandiya, Kanada va Rossiya
fuqarolari hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolarining ishtiroki boshqaruv
organining mustaqil qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi.

KUZATUV KENGASHI

FAOLIYATI

Hisobot yili davomida Aksiyadorlarning va Kuzatuv kengashining 26 ta majlislari o'tkazildi va mazkur majlislarda bank faoliyatiga oid 195 ta masala ko'rib chiqildi.

Amalga oshirilgan ishlar	Majlislar soni	Muhokama qilingan masalalar
Aksiyadorlaring umumiy yig'ilishida	2	17
Kuzatuv kengashining o'tkazgan majlislari	24	178

Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalar faoliyatining maqsadi – Bankning barqaror rivojlanishini va aksiyadorlari uchun uzoq muddatli qiymatini saqlab qolish uchun bank transformatsiyasini amalga oshirish, xolis va puxta o'ylangan qarorlar qabul qilinishini ta'minlashdan iborat.

2023-yilda Kuzatuv kengashining 24 ta majlislari o'tkazildi, shundan 2 tasi to'g'ridan-to'g'ri, 15 tasi video-konferens-aloqa vositasi orqali, 7 tasi sirdan ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. Majislarda jami 179 ta masala ko'rib chiqildi.

Yil davomida Kuzatuv kengashi tomonidan Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlari yuzasidan quyidagi masalalari ko'rib chiqildi: transformatsiyaga qaratilgan 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Bankni rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi, yillik biznes-rejani amalga oshirish bilan bog'liq masalalar, risklarni boshqarish masalalari hamda ichki nazorat, komplayens va audit tizimini kuchaytirish, axborot texnologiyalari holati va rivojlanish istiqbollari, korporativ boshqaruv masalalari, bank faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risidagi boshqaruv hisobotlari ko'rib chiqildi, Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar, yangi tahrirdagi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi to'g'risidagi nizomlar, shuningdek, yangi tahrirdagi Likvidlikni boshqarish va Hisob siyosatlari hamda Korporativ etika kodeksi tasdiqlandi

KUZATUV KENGASHI QO'MITALARNING 2023-YILDAGI FAOLIYATI

Kuzatuv kengashi qoshida 5 ta qo'mita tashkil etilgan

STRATEGIYA VA INVESTITSIYA QO'MITASI	AUDITORLIK VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH	RISKLARNI BOSHQARISH QO'MITASI	KORPORATIV BOSHQARUV, TAYINLASH VA ETIKA QO'MITASI	XODIMLAR VA MUKOFOTLASH QO'MITASI
Taron Ganjalyan Qo'mita Raisi	Zaynudinov Sirojiddin Sayfutdinovich Qo'mita Raisi	Rodjer Tomson Qo'mita Raisi	Kayser Nasim Qo'mita Raisi	Ibragimov Djamol Kamilovich Qo'mita Raisi
A'zolari Rodjer Tomson	A'zolari Ibragimov Djamol Kamilovich	A'zolari Zaynudinov Sirojiddin Sayfutdinovich	A'zolari Taron Ganjalyan	A'zolari Kayser Nasim
Kayser Nasim	Rodjer Tomson	Taron Ganjalyan	Ibragimov Djamol Kamilovich	Zaynudinov Sirojiddin Sayfutdinovich

Qo'mita raislarining hamda qo'mita a'zolarining asosiy qismi Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari hisoblanadi.

2023-yil davomida Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalarning 61 ta majlislari o'tkazildi va mazkur majlislarda bank faoliyatiga oid 380 ta masala ko'rib chiqildi.

Qo'mitalar	Majlislar soni	Muhokama qilingan masalalar
Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi	16	125
Korporativ boshqaruv, tayinlash va etika qo'mitasi	7	36
Risklarni boshqarish qo'mitasi	15	115
Strategiya va investitsiya qo'mitasi	14	61
Xodimlar va mukofotlash qo'mitasi	9	43
Jami	61	380

BANK BOSHQARUVI TARKIBI



**Atabayev Shuxrat
Xaldarovich**

Boshqaruv Raisi



**Azimov Zafar
Abdumajidovich**

Boshqaruv Raisining
birinchi o'rinnbosari



**Ruziyev Farrux
Aralovich**

Rais o'rinnbosari



**Kutliyev Dilshod
Orifovich**

Rais o'rinnbosari



**Rashidova Gulzoda
Ataxanovna**

Rais o'rinnbosari



**Tashmatov Nuriddin
Zubaydullaevich**

Yuridik departament
direktori

ASOSIY MOLIYAVIY KO'RSATKICHLAR

Moliyaviy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkichlar	01.01.24 y. holatiga fakt	01.01.23 y. holatiga fakt	mlrd so'mda %
Aktivlar			
Kreditlar	36 603	31 672	116 %
Majburiyatlar	24 549	21 666	113%
Depozitlar	30 720	26 353	117 %
Kapital	17 044	13 583	125 %
Ustav kapitali	5 883	5 319	111 %
	7 748	7 433	104 %

Ko'rsatkichlar	2023-yil fakt	2022-yil fakt	mlrd so'mda %
Daromadlar	9 666	7 664	126 %
Foizli	6 250	4 667	134 %
Foizsiz	3 416	2 986	114 %
Xarajatlar	9 417	7 656	123 %
Foizli	4 328	3 457	125 %
Foizsiz	407	260	157 %
Operatsion	1 671	1 460	114 %
Joriy yil zaxiralari	3 010	2 479	121 %
Sof foyda	248	8	3131 %

ASOSIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Ko'rsatkichlar	01.01.24 y. holatiga fakt	01.01.23 y. holatiga fakt
Kapital rentabelligi (ROE)	4,6 %	0,1 %
Aktivlar rentabelligi (ROA)	0,7 %	0,03 %
Sof foizli marja (NIM)	6,6 %	5 %
Kapital yetarliligi (CAR)	17,9 %	18,8 %
Daromadlar va xarajatlar nisbati (CIR)	33,9 %	37 %

AJRATILGAN KREDITLAR

2023-yilda moliyalashtirilgan loyihalar

Ajratalgan kreditlar	Soni	Summasi (mlrd so‘m)
Sanoat	84 944	1 398
Qishloq xo‘jaligi	69 676	1 794
Xizmat ko‘rsatish	45 306	2 239
Jismoniy shaxslarga	187 364	5 589
Jami	387 290	11 020

DAVLAT DASTURLARI IJROSI

Yo'nalish nomi	Summasi (mlrd so'm)	Yaratilgan ishchi o'rni
Jami	4 007	196 604
Har bir oila – tadbirkor dasturi	3 606	175 672
Xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash	153	12 111
Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	236	8 720
Hunarmandchilikni rivojlantirish	4,0	64
Mahalliy hokimliklar huzuridagi jamg'armalar	7,8	37

IJTIMOIY VAZIFALAR

IJROSI

6,4 mln nafar

Jami to'lov oluvchilar soni

6,2 trln so'm

Bir oylik ijtimoiy to'lovlar

12 ta

Ijtimoiy to'lov turlari

Yo'nalish nomi

Ijtimoiy to'lovlar

Soni
(ming nafar)

Summasi
(mlrd so'm)

Jami

Pensiya va nafaqa	4 113
Ijtimoiy to'lovlar (Kam ta'minlangan oilalarga)	2 110
Harbiy pensiya	48
Boshqalar	151

6 422

6 198

4 906

994

178

120

Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarni to'lash mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi va soddalashtirildi:

2023-yil davomida

Pensiya mablag'larini bank kartalari orgali to'lab berish, jami pensiya mablag'larining 49%ni tashkil etdi.

Pensiya mablag'larining to'lanma-gan qoldiq summalarini tegishli vakillik hisobvaraqlariga inson omilisiz, o'z vaqtida va to'g'ri qaytarilishi avto-matlashtirildi.

"Homiladorlik va tug'ish" nafaqasi hamda Jazoni o'tab ozodlikka chiqqan fuqarolarga moddiy yordam to'lovleri "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali to'lanishi avto-matlashtirildi.

2023-yil davomida

Harbiy pensionerlar uchun "**UzASBO harbiy platformasi**" ishlab chiqildi va pensiya mablag'lari avtomatik ravishda 100% bank kartalari orgali to'lab berilishi avtomatlashtirildi. Shuningdek, bank filiallarida harbiy pensiya varaqasi yuritilishi bekor qilindi.

Vafot etgan pensiya va nafaqa oluvchilarni aniqlash bo'yicha bankning tegishli ma'lumotlar bazasi FHDYO bazasi bilan integratsiya qilindi. Bunda, vafot etgan fuqarolarning pensiya to'lovleri pensiya dasturida to'lanishining oldi olindi.

2023-yil davomida

Barcha filiallarda Cashbox dasturi ishga tushirildi va kassada yuritiladigan barcha kitoblar, talabnomalar va kirim-chiqim amaliyotlari va yuridik mijozlarga xizmat ko'rsatish amaliyotlari avtomatlashtirildi.

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to'lab berilishi avtomatlashtirilib, to'lovlarni bankning istalgan tuman (shahar) filiallaridan olish imkoniyati yaratildi.

Sayyor kassalar optimizatsiya qilindi.

MIJOZLARGA MASOFAVIY XIZMAT KO'RSATISH

Masofaviy xizmat ko'rsatish mahsulotlari



Mobil ilovadan
foydalanuvchilar

1 mln

- | | |
|--|---|
| Davlat xizmatlari | Onlayn kredit olish |
| Ijtimoiy xizmatlari | Onlayn omonat ochish |
| Hisobraqamga o'tkazma | P2P o'tkazmalari va
"Avto to'lov" xizmatlari |
| Avtomobil sug'urtasini
rasmiylashtirish (OSAGO) | Kommunal va boshqa
to'lovlar |
| Suyunchi puli | Kreditlarni
so'ndirish |
| JBPTga ixtiyoriy
kirim-chiqim | Mening pensiyam |

ALOQA MARKAZI



24/7

tartibida
ishlamoqda



153 203 ta

Bank kartalari va terminallari bo'yicha
ko'rsatilgan masofaviy xizmatlar



2 500 ta

Kunlik murojaat
soni (o'rtacha)



5 498 ta

Jamg'arib boriladigan pensiya
tizimi bo'yicha ko'rsatilgan
masofaviy xizmatlar



11 096 ta


xazna ilovasi bo'yicha
ko'rsatilgan masofaviy
xizmatlar



100 % (792 485 ta)

Masofadan masalasi hal
etilgan murojaatlar

Kelib tushgan murojaatlar soni 792 485 ta



2024-YILDAGI ISTIQBOLLI REJALAR

Asosiy ko'rsatkichlar

39,3 trln. so'm (10%)

Aktivlar hajmi

32,9 trln. so'm (11%)

Majburiyatlar

507 mld. so'm (108%)

Sof foyda

25,6 trln. so'm (9%)

Kredit portfeli

20,2 trln. so'm (15%)

Depozitlar hajmi

3,7 trln. so'm (11%)

Operatsion daromad

Kredit portfeli va boshqa moliyaviy aktivlar sifatini oshirish:

1. Muammoga aylangan kreditlarni toifalarga ajratib, ularni undirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqish va muammoli kreditlar ulushini (NPL) 7,6% dan 5%ga tushirish;
2. Aktivlar sifatini yaxshilash va yuqori likvidli aktivlar miqdorini oshirish maqsadida Davlat va Markaziy bank obligatsiyalari hajmini 5,0 trln. so'mga yetkazish.

Bank transformatsiyasi va biznes jarayonlarni optimallashtirish hamda Osiyo taraqqiyot banki konsultantlari bilan hamkorlikda Strategiyani amaliyotga joriy qilish:

1. Xalq bankida biznes jarayonlarni avtomallashtirish maqsadida "HRMS", "Soft Collection", o'qitish tizimi platformasi, hisobot tizimi avtomatlashuvi va elektron navbat tizimlari loyihamalarini amalga oshirish;
2. Amaliyotlarni raqamlashtirish maqsadida yangi mobil ilova va internet-banking tizimini rivojlantirish, kartalar protsessing markazini tashkil qilish, Agent-banking, bankomatlar va ADM tizimlarini rivojlantirish;
3. Biznes jarayonlari va bek-ofis funksiyalarini markazlashtirish – yagona MFO, markazlashgan kassa, markazlashgan operatsiyalar bo'linmalarini tashkiletish.

BANK XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH

Xalqaro tajribani o'rganish

Islamic Development Bank Institute xususiy sektorni rivojlantirish ekspertlari;

German Sparkassenstiftung (Germaniya) vakili;

JICA (Yaponiya) ekspertlari va maslahatchilari;

ICF (International Coaching Federation) murabbiyi va maslahatchisi.

Keng ko'lamli o'quv tadbirlar

8500 nafar xodim uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining mazmuni va mohiyatini tushuntirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot tashkil etildi;

3600 nafar xodim bank tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarga Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Bosh Prokratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamkorligida **"Korrupsiyaga qarshi kurashish va oldini olish"** mavzusida seminar o'tkazildi;

3000 nafardan ortiq xodim bank tizimida yagona masofaviy o'quv platformasi **"Ispring"**dan foydalаниб о'qитилди;

500 nafardan ortiq xodimga OTBning OCM loyihasi asosida **"Tashkiliy o'zgarishlarni boshqarish jarayonida OCM vakillarining roli"** mavzusida seminar trening o'tkazildi;

260 nafardan ortiq xodim **"HRMS"** dasturi bo'yicha o'z malakalarini oshirishdi;

60 nafar xodimga "Aholini moliyaviy savodxonligini oshirish" mavzusida seminar trening o'tkazildi;

40 nafardan ortiq xodimga "German Sparkassenstiftung" xalqaro tashkiloti tomonidan **"Aylanma kredit fondi"** dasturi bo'yicha seminar trening o'tkazildi.

9 210

nafar xodim o'qitildi

55%



Onlayn o'quv kurslari
tashkil etildi.

45%



Kunduzgi o'quv
kurslari tashkil etildi.

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TASHQI BAHOLASH

QIMMATLI QOG'OZLARNING
MARKAZIY DEPOZITARIYSI
DAVLAT KORXONASI



STATE ENTERPRISE
CENTRAL SECURITIES
DEPOSITORY

100170, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Mirzo-Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107.

107, Mustakillik avenue, Tashkent city,
100170, Republic of Uzbekistan

Tel: 998 (71) 211-09-09. Internet: www.deponet.uz, uzcsd.uz, e-mail: info@uzcsd.uz, uzcsd@exat.uz
Moliya vazirligi G'aznachiligi, G'azna HR: 23402000300100001010, Markaziy bank Toshkent shahar boshqarmasi, MFO:00014, STIR:201122919,
Shaxsiy g'azna hisob raqami: 470010860262697041130021002, STIR: 203021987, IFUT: 66190

4 may 2023 yil.

02/10-2323-son

“O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki” корпоратив бошқарув тизимини баҳолашни ўтказиш тўғрисида

ХУЛОСА

Қайси корхона учун тайёрланди

“O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki”

Юридик манзил

Ўзбекистон Республикаси, Тошкент шаҳар,
Чилонзор тумани, Қатартол кўчаси, 46

Банк реквизитлари

Ўзбекистон Республикаси “Aksiyadorlik tijorat Xalq banki” нинг бош Амалиёт бошқармаси
x/p: 1990 7000 8000 0112 5887

Қайси корхона томонидан тайёрланди

“Қимматли қоғозлар марказий
депозитарийси” давлат корхонаси

Юридик манзил

100 170, Тошкент ш., Мустақиллик шоҳ
кўчаси, 107-үй

Телефон/факс

тел: 998 (71) 267-37-42; факс: 267-36-87

Давлат рўйхатидан ўтганлик
тўғрисидаги маълумотлар

Давлат рўйхатидан ўтганлик тўғрисидаги
гувоҳнома рақами: 000979-03, 02.09.2008 й.

Банк реквизитлари

Молия вазирлиги ғазначилиги
x/p 23402000300100001010, Марказий банк
Тошкент шаҳар бошқармаси.

Бош директор

Абдужаббаров Шерали Янгибаевич

Баҳолашда иштирок этган
мутахассиснинг фамилияси, исми ва
отасининг исми

Абсаламов Э.Б.

“O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki” (кейинги ўринларда –
Банк) корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш тўғрисидаги хулоса “Қимматли
қоғозлар марказий депозитарийси” давлат корхонаси (кейинги ўринларда – Марказий
депозитарий) томонидан тайёрланди.

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI TASHQI BAHOLASH

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: MM45417701

Марказий депозитарий “Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ва Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 21 майдаги “Қимматли қоғозлар марказий депозитарийсини ташкил этиш ва унинг фаолияти масалалари тўғрисида”ги 263-сонли қарори, Устав ҳамда бошқа норматив-хукуқий ҳужжатларга мувофиқ ўз фаолиятини амалга оширади.

Корпоратив бошқарув кодексига мувофиқ Марказий депозитарий акциядорлик жамиятларига корпоратив бошқарув тизимини баҳолашни ўтказиш бўйича хизматларни кўрсатиш хукуқига эга мустақил ташкилотлар рўйхатига киритилган.

Банкда корпоратив бошқарув тизими ҳолати тўғрисида мустақил холисона фикрни шакллантириш баҳолашни ўтказишнинг асосий мақсадларидан бири ҳисобланади.

Банкнинг корпоратив бошқарув тизимини баҳолаш Ўзбекистон Республикаси Давлат рақобат қўмитаси (ҳозирда – Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш агентлиги) ва Корпоратив бошқарув илмий-таълим маркази (ҳозирда – Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби) томонидан 25.07.2016 йилда тасдиқланган саволнома асосида ўтказилди.

Марказий депозитарий фақат Банк томонидан тақдим этилган ҳужжатлар, ҳисботлар, маълумотлар ва бошқа материаллар асосида Банкнинг корпоратив бошқарув тизими ҳолати тўғрисида шакллантирилган ўз нуктаи назарини ифодалаганлик учун жавобгар ҳисобланади.

Банк тақдим этилган ҳужжатлар, ҳисботлар, маълумотлар ва бошқа материалларнинг тўлиқлиги, мазмуни ва ишончлилиги учун жавобгар ҳисобланади. Олинган ҳужжатларнинг, маълумотларнинг ва бошқа материалларнинг асл нусхалиги ва ишончлилиги текширилмади ва баҳслашилмади. Баҳолаш амалга оширилгандан кейин Марказий депозитарийга келиб тушган, ёки қандайдир сабабларга кўра тақдим этилмаган ҳужжатлар Марказий депозитарийнинг кўриб чиқиш доирасига киритилмади.

Марказий депозитарий Банк томонидан тақдим этилган ҳужжатлар, ҳисботлар, маълумотлар ва бошқа материаллар Банкнинг корпоратив бошқарув тизими ҳолати тўғрисида мустақил фикр ифодалаш учун етарли деб ҳисоблайди.

2022 йил якуни бўйича Корпоратив бошқарув тизими даражасини баҳолашнинг натижаси **654 баллни** ташкил этди ва Марказий депозитарийнинг хулосасига мувофиқ Банкнинг корпоратив бошқарув тизими даражаси **юкори** деб эътироф этилади.

Бош директорнинг
биринчи ўринbosари в.в.б.



А. Юсупходжаев